

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

70230104 – Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti
magistratura ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70230104 – Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260034
Xulosa raqami	704
Xulosa sanasi	18.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze, Saroy ko'chasi, 3-uy; litsenziya № 75 / 14.04.1992
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Adabiyotshunoslik: rus adabiyoti
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70230104
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	SULTONOVA SHOXISTA MUXAMMADJANOVNA, Renessans ta'lim universiteti

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 75 / 14.04.1992
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70230104 - Adabiyotshunoslik rus adabiyoti
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70230104 - Russian Literature Studies
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70230104 - Литературоведение: русская литература
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (rus adabiyoti bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	12 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze, Saroy ko'chasi, 3-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.

Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonlari normativ-huquqiy asoslar hamda strategik hujjatlar bilan uyg'un holda tashkil etilgan bo'lib, boshqaruv va sifatni ta'minlashning institutsional tizimi shakllangan. Dastur maqsadlari, kutilayotgan natijalar va kompetensiyalar o'rtasida umumiy uyg'unlik mavjud, shuningdek, manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, bitiruvchilar va talabalar) fikrlarini inobatga olish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Monitoring va baholash jarayonlarida ma'lum indikatorlar qo'llanilib, ta'lim mazmunini yangilash va amaliyot bilan bog'lashga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda (monitoring indikatorlari, natijalarni o'lchash mezonlari, xavflarni baholash, resurslar yetarliligi hamda feedback natijalarining hujjatlashtirilishi) yanada aniqlik va tizimlilikni kuchaytirish zarur. Umuman olganda, ta'lim dasturi rivojlanishining institutsional va metodik asoslari shakllangan bo'lib, uni yanada natijador va o'lchanadigan yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyati mavjud.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.

Ta'lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish jarayoni umumiy holda zamonaviy oliy ta'lim sifatini ta'minlash talablariga mos keladi. Dastur "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-y.) hamda kredit-modul tizimi (2018-y.) kabi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, bu uning huquqiy, tashkiliy va metodik asoslarining mustahkamligini ta'minlaydi. Dasturni shakllantirish jarayonida talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangan; ularning taklif va mulohazalari so'rovlar, muhokamalar, maslahat kengashlari hamda kafedra va o'quv-uslubiy organlar yig'ilishlari orqali inobatga olingani kollegial boshqaruv va ichki ekspertiza tizimi mavjudligini ko'rsatadi. Fanlar va modullar o'rtasidagi uzviylik,

mashg'ulot turlarining malaka talablari bilan mosligi hamda o'quv natijalari va kompetensiyalar bilan bog'liqligi dasturning tizimli va mantiqiy tuzilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, manfaatdor tomonlar takliflarini qayta ishlashning aniq metodikasi, mehnat bozori tahlili natijalarining dastur mazmuniga ta'siri hamda xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil mexanizmlari to'liq ochib berilmagan; baholash tizimida rubrikatorlar va monitoringda aniq indikatorlar hamda raqamli vositalardan foydalanish darajasi yanada kuchaytirilishi lozim.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.

Universitetda o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi DTS va malaka talablari asosida tizimli va zamonaviy yondashuvda tashkil etilgan. Ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan natijalar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlangan bo'lib, fanlar mazmuni zarur kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayonida ish beruvchilar va hamkorlar ishtiroki hamda xalqaro tajribadan foydalanish mavjud; amaliyot, loyiha ishlari va zamonaviy pedagogik usullar nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlagan. Baholash tizimi ko'p bosqichli bo'lib, shaffoflik, obyektivlik va akademik halollik tamoyillariga asoslangan. Shu bilan birga, baholash mezonlarini yanada aniqlashtirish, natijalarni tahlil qilish, ish beruvchilar va hamkorlar ishtirokini hujjatlashtirish hamda qayta aloqa va monitoring jarayonlarini takomillashtirish zarur.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi.

Ta'lim dasturida talabalar faoliyatini tashkil etish va qabul jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tizimli yo'lga qo'yilgan. Qabul mezonlari, tartiblari va natijalarining ochiq e'lon qilinishi hamda apellyatsiya va murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi jarayonning shaffofligi va xolisligini ta'minlaydi. Qabul jarayonlari infratuzilma, professor-o'qituvchilar salohiyati va moliyaviy resurslar bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Talabalar harakati, akademik mobillik hamda kreditlarni tan olish tizimlari ichki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan; talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy xizmatlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda monitoring, raqamlashtirish va analitik asoslarni kengaytirish hamda mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni oshirish tavsiya etiladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi.

Oliy ta'lim muassasasida inson resurslarini boshqarish tizimi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tizimli yo'lga qo'yilgan bo'lib, kadrlar tarkibini shakllantirish, jalb qilish, rivojlantirish va rag'batlantirish jarayonlari izchil tashkil etilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy salohiyati yuqori darajada bo'lib, asosiy shtat ulushi belgilangan me'yorlarga mos rejalashtirilgan; fanlar kesimida kompetensiyalarning oldindan belgilanishi ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kadrlar siyosatida ochiq tanlov va konkurs asosida ishga qabul qilish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish hamda yosh kadrlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirish mexanizmlari joriy etilgan; doktorantura va malaka oshirish tizimi hamda KPI asosidagi baholash amaliyotga tatbiq etilgan. Shu bilan birga, natijadorlikni aniq miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash, xalqaro ilmiy bazalar bilan integratsiyani kuchaytirish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.

Adabiyotshunoslik (rus adabiyoti) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza shakllantirilgan; talabalar uchun zamonaviy auditoriyalar, kompyuter texnikasi, multimedia vositalari, barqaror internet, kutubxona fondi, elektron resurslar va o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlangan infratuzilma mavjud. Filologik ta'lim yo'nalishining xususiyatidan kelib chiqib, laboratoriya bazasi talab etilmaydi, biroq tahliliy, ilmiy-tadqiqot va amaliy filologik ishlarni bajarishga xizmat qiluvchi infratuzilma yetarli darajada shakllantirilgan. O'quv xonalari zamonaviy AKT bilan jihozlangan, LMS va HEMIS tizimlari joriy etilgan, elektron kutubxona fondi o'quv materiallaridan keng foydalanish imkonini yaratadi; inklyuziv ta'lim uchun moslashtirilgan infratuzilma elementlari mavjud. Shu bilan birga, raqamli filologiya vositalarini (matn korpuslari, lingvistik tahlil dasturlari, plagiatni aniqlash va stilistik tahlil tizimlari) bosqichma-bosqich joriy etish, elektron resurslar bazasini kengaytirish hamda ochiq ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirishni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Monitoring indikatorlari, natijalarni o'lchash mezonlari, xavflarni baholash hamda feedback natijalarining hujjatlashtirilishi yetarli aniqlik va tizimlilikka ega emas (1-bob).
- ✓ Manfaaddor tomonlar takliflarini qayta ishlashning aniq metodikasi, mehnat bozori tahlili natijalarining dastur mazmuniga ta'siri hamda xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil mexanizmlari to'liq ochib berilmagan (2-bob).
- ✓ Baholash tizimida rubrikatorlar, aniq ball taqsimoti va monitoringda raqamli vositalardan foydalanish darajasi yetarli emas (2–3-bob).
- ✓ Talabalar faoliyati va qabul jarayonlarida monitoring, raqamlashtirish va analitik asoslar yetarli darajada rivojlantirilmagan (4-bob).
- ✓ Amaliy mashg'ulotlar uchun zarur asbob-uskunalar va texnik vositalar ro'yxati hamda ularning talabalar kontingenti kesimidagi yetarliligi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan asoslanmagan (6.1-mezon).
- ✓ Raqamli filologiya vositalari (matn korpuslari, lingvistik/stilistik tahlil, plagiatni aniqlash) va ochiq ilmiy ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlari to'liq shakllantirilmagan (6-bob).

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Monitoring indikatorlari, natijalarni o'lchash mezonlari va feedback natijalarini tizimli hujjatlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish.
- ✓ Manfaaddor tomonlar takliflarini qayta ishlash metodikasini hamda mehnat bozori tahlilining dastur mazmuniga ta'sirini hujjatlashtirish.
- ✓ Baholash tizimiga rubrikatorlar, aniq ball taqsimoti va raqamli baholash vositalarini joriy etish.
- ✓ Xalqaro ta'lim standartlari bilan qiyosiy tahlilni amalga oshirish va uni hujjatlarda aks ettirish.

- ✓ Amaliy jihozlar va texnik vositalar ro'yxatini talabalar kontingenti kesimida shakllantirib, miqdoriy ko'rsatkichlar bilan asoslash.
- ✓ Raqamli filologiya vositalari (matn korpuslari, lingvistik/stilistik tahlil, plagiatni aniqlash) va xalqaro ochiq ilmiy bazalarga kirishni bosqichma-bosqich kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

70230104 – Adabiyotshunoslik (rus adabiyoti) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar ta'lim jarayonining barcha asosiy yo'nalishlari normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari hamda kredit-modul tizimi talablari asosida tizimli tashkil etilganini ko'rsatadi. Dastur maqsadlari, kutilayotgan natijalar va kompetensiyalar o'rtasida izchil mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lib, ichki sifatni ta'minlash, monitoring va manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Ta'lim jarayoni tashkil etilishi, o'quv rejalari, baholash tizimi va talabalar faoliyatini boshqarish jarayonlari umumiy jihatdan shaffoflik, izchillik va akademik halollik tamoyillariga mos keladi. Professor-o'qituvchilar salohiyati, kadrlar siyosati va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Moddiy-texnik baza, raqamli ta'lim infratuzilmasi, LMS/HEMIS tizimlari, elektron kutubxona va inklyuziv ta'lim imkoniyatlari mavjudligi dastur ijrosining zamonaviy talablarga mos yo'lga qo'yilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim jarayonlarda natijadorlikni o'lchash, monitoring indikatorlarining aniqligi, raqamlashtirish darajasi hamda hujjatlashtirish tizimlarini takomillashtirish zarur; xususan, manfaatdor tomonlar fikrlarini tizimli qayta ishlash, mehnat bozori bilan integratsiyani chuqurlashtirish, baholash mezonlarini aniqlashtirish hamda raqamli analitika vositalaridan kengroq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim dasturi institutsional, akademik va infratuzilmaviy jihatdan barqaror shakllangan bo'lib, zamonaviy oliy ta'lim talablariga mos keladi hamda akkreditatsiyadan o'tdi deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (<i>akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi</i>)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

